



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

△ 2867



FARG'ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI


2022-YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar -iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati korxonalarini tomonidan 13 918,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,2%ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat 5,1 %ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi
ulushi, foizda**

2021-yil

B

0,6%

2022-yil

B

0,3%

yanvar-iyun

Ishlab chiqaradigan sanoat

mldr. so'm

yanvar-iyun

FHI,%da

10 251,9

12 970,8

100,9

105,1



2021-y.

2022-y.

2021-y.

2022-y.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 970,8 mldr. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,2 %ini tashkil etdi.

2021-yil
yanvar-iyun


93,1%

2022-yil
yanvar-iyun

93,2%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,5 % (12,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,7% (25,5%) va quyi texnologiyalisi – 57,8% (55,2%)ni tashkil etdi.


■ 2021-yil ■ 2022-yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,5 % (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 117,7%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,7% (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,2 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,2% (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,9 % (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



yanvar-iyun


2022-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 95,4 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 17,2%ga kamaygan), 140,5 ming tonna dizel yoqilg'isi (18,8 % kamaygan), 66,7 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (2,2%ga ortgan) hamda 29392,0 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (15,4%ga kamaygan) ishlab chiqariligan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyun	2022-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	115,2	95,4	-19,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	129,5	118,1	-11,4
Paxta chigitı, ming t.	27,4	44,9	17,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	12,0	8,4	-3,6

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish



Karbamid Ming. t

2021-yil

60,6

2022-yil

56,4



Dizel yoqilg'isi Ming. t


2021-yil

173,0

2022-yil

140,5

Portlandsement . t



2021-yil

494,6

2022-yil

409,3



Etil spiriti Ming. l

2021-yil

8156,0


2022-yil

5521,0


Farg'ona viloyatida 2022-yil yanvar-iyun oylarida jami 56,4 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 140,5 ming tonna , portlandsement ishlab chiqarish 409,3 ming tonna . Etil spirit ishlab chiqarish 5521,0 ming litrni tashkil etgan .

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 61,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 48,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,3%ni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 1 232,4 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,2 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1456,2 mlrd soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 10,5 %ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 687,4 mlrd. soʻmni, joriy 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 806,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 13,0 %ga oʼsgan.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 34,8 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 27,8 mlrd.so'mni tashkil etib 7,0 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 3304,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 30,0 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 5001,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 35,9 %ni tashkil etdi va 5,9 punktga ko'paydi .

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 %ni ya'ni jami 426,1 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 3,5%ni tashkil etib 483,7 mlrd.so'mga tengdir. Farg'ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 57,6 mlrd.so'mga ortgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 22,0 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 18,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 1 070,6 mlrd.so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 9,7 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari jami ishlab chiqariladigan sanoatining 6,1 %ni tashkil etib, 852,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,8 %ni ya'ni 203,6 mlrd.so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o'tgan yilga nisbatan 41,3 mlrd.so'mga ko'paygan va 244,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonaları tomonidan 2022-yıl yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 803,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotları hajmning 5,8%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 176,3 mlrd .so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonaları tomonidan sanoat mahsulotlarını ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyun	2022-yil yanvar-iyun	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	181,6	213,6	32,0
Issiqlik energiyasi, ming.gkal	841,8	666,6	-175,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyun	2022-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,9	11,1	4,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	8,9	15,2	6,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,2 mlrd.so'm yoki 59,7 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,3 mlrd. so'm 5,7%ga ko'paygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4214,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 109,1%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,3%ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-iyun

38,8%

2022-yil
yanvar-iyun

37,4%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-iyun

60,5%

2022-yil
yanvar-iyun


62,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 26,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 16,3%ni va Farg'ona tumanida 14,5%ni tashkil etdi.

yanvar-iyun

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 688,7 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 16,3 %i, Farg'ona shahrida 550,2 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 13,1 %i shuningdek, Uchko'prik tumanida 609,8 mlrd. so'mlik, 14,5 %ni tashkil etdi.




4 184,2 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-iyun

4 214,1 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-iyun



2021-yil

100,0%

2022-yil

109,1%

Farg'ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona shahriga to'g'ri kelib, 23,4%ni, shuningdek, Qo'qon shahri 18,1%ni, Toshloq tumani 13,6%ni, Uchko'prik tumani 6,9% tashkil etdi.

Farg'ona viloyati

2021-yil

11 011,1 mlrd.so'm

yanvar-iyun

2022-yil

13 918,1 mlrd.so'm

yanvar-iyun



2021-yil

101,1%

2022-yil

106,6 %

Marg'ilon.sh	511,3	104,1
Quvasoy.sh	643,8	110,8
Qo'qon.sh	2523,9	112,7
Farg'ona.sh	3252,2	100,1
Yozyovon.t	72,1	110,2
Furqat.t	264,9	111,8
Dang'ara.t	364,9	113,5
Farg'ona.t	435,7	114,5
O'zbekiston.t	366,8	100,4
Toshloq.t	1894,0	108,8
So'x.t	42,1	100,3
Rishton.t	247,9	110,6
Uchko'prik.t	960,3	101,0
Quva.t	316,1	111,4
Beshariq.t	395,0	116,5
Buvayda.t	124,9	116,6
Bag'dod.t	373,9	101,1
Qo'shtepa.t	629,0	114,2
Oltiariq.t	353,5	124,2

FHI, %da

mlrd. so'm

yanvar-iyun

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to'g'ri kelib, 11,7% shuningdek, Qo'qon shahri 16,8 %, Farg'ona shahri 14,9 %ni tashkil etadi.

2974,5 mld. so'm

2021-yil yanvar-iyun

2612,3 mld. so'm

2022-yil yanvar-iyun

62,0%

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq-ovqat
mahsulotlarining
ulushi

91,3 %

2021-yil

105,4 %

2022-yil

Marg'ilon.sh	86,3	179,0
Quvasoy.sh	66,4	28,5
Qo'qon.sh	102,2	439,7
Farg'ona.sh	114,3	390,9
Yozyovon.t	89,4	26,0
Furqat.t	163,1	177,5
Dang'ara.t	104,9	82,6
Farg'ona.t	54,5	8,8
O'zbekiston.t	103,5	32,4
Toshloq.t	104,3	306,8
So'x.t	104,9	14,2
Rishton.t	106,2	93,1
Uchko'prik.t	80,1	270,5
Quva.t	97,3	43,2
Beshariq.t	228,6	119,2
Buvayda.t	118,2	104,8
Bag'dod.t	86,5	150,7
Qo'shtepa.t	132,7	90,5
Oltiariq.t	168,6	53,9

o'sish sur'ati

mld. so'm

yanvar-iyun

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 21,5 %ni, shuningdek, Qo'qon shahri 14,6% ni, Farg'ona shahri esa 10,1 %ni tashkil etdi.


	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>mlrd. so'm</i>
Marg'ilon.sh	130,9	128,5
Quvasoy.sh	171,6	34,9
Qo'qon.sh	97,3	230,1
Farg'ona.sh	113,1	159,3
Yozyovon.t	114,3	28,6
Furqat.t	72,9	57,7
Dang'ara.t	95,3	44,6
Farg'ona.t	133,9	27,8
O'zbekiston.t	101,0	32,7
Toshloq.t	206,4	29,7
So'x.t	114,6	21,3
Rishton.t	105,0	23,9
Uchko'prik.t	135,0	339,3
Quva.t	109,5	77,2
Beshariq.t	83,6	26,3
Buvayda.t	160,3	72,1
Bag'dod.t	119,3	146,9
Qo'shtepa.t	112,3	54,9
Oltiariq.t	121,0	39,9

1 623,7 *mlrd.so'm*

2021-yil yanvar-iyun

1 575,7 *mlrd.so'm*

2022-yil yanvar-iyun



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (10815,0 ming.so'm), Qo'qon shahrida (9677,3 ming.so'm) hamda Toshloq tumanida (8987,1 ming.so'm), Quvasoy shahrida (6615,5 ming.so'm), Uchko'prik tumanida (4025,4 ming so'm).

Farg'ona viloyati

Yozyovon.t	625,5	107,8
Furqat.t	2166,1	109,5
Dang'ara.t	2008,2	110,8
Farg'ona.t	1961,3	112,0
O'zbekiston.t	1483,2	98,6
Toshloq.t	8987,1	106,5
So'x.t	520,9	98,6
Rishton.t	1185,3	108,5
Uchko'prik.t	4025,4	98,6
Quva.t	1183,9	109,4
Beshariq.t	1679,4	114,7
Buvayda.t	1140,7	114,1
Bag'dod.t	1666,6	99,0
Qo'shtepa.t	3152,7	111,3
Oltiariq.t	1606,2	121,6
Marg'ilon.sh	2100,0	102,5
Quvasoy.sh	6615,5	108,6
Qo'qon.sh	9677,3	111,2
Farg'ona.sh	10815,0	98,1

o'sish sur'ati


ming. so'm

2021-yil

1330,2 ming. so'm

2022-yil

3556,2 ming. so'm



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1076,7 ming.so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 2640,5 ming.so‘mni, Toshloq tumanida 1596,3 – Uchko‘prik tumanida 2556,0 – Farg‘ona shahrida 1829,5 ming so‘mni, tashkil etdi.

Farg‘ona viloyati

2021-yil

551,2 ming. so‘m

2022- yil

1076,7 ming. so‘m



2021-yil

102,9 %

2022-yil

106,9 %

Yozyovon.t	98,7	473,6
Furqat.t	122,6	1922,8
Dang‘ara.t	98,9	700,7
Farg‘ona.t	101,4	197,1
O‘zbekiston.t	100,4	263,2
Toshloq.t	106,7	1596,3
So‘x.t	108,6	437,8
Rishton.t	104,0	559,8
Uchko‘prik.t	101,1	2556,0
Quva.t	102,9	450,4
Beshariq.t	171,2	618,9
Buvayda.t	129,6	745,4
Bag‘dod.t	98,1	1326,7
Qo‘shtepa.t	121,0	729,2
Oltiariq.t	141,3	426,0
Marg‘ilon.sh	99,1	1263,0
Quvasoy.sh	98,3	652,5
Qo‘qon.sh	99,0	2640,5
Farg‘ona .sh	111,6	1829,5

ming. so‘m


yanvar-iyun

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar -iyun oylarida %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan **5 365,6** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **38,6** %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So'x, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish **100%** kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Furqat tumani (**93,1%**), Buvayda tumani (**84,5%**), Uchko'prik tumani (**83,4%**), Bag'dod tumani (**76,9%**), Rishton tumani (**66,1%**),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani (**12,1%**),Farg'ona tumani (**14,0%**), Quva tumani (**21,5%**), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 11011 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 10347 faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1419 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,7 %) Qo'qon shahriga, 1204 tasi (11,6%) Farg'ona shahriga, 1035 tasi (10,0 %) Marg'ilon shahriga, 691 tasi (6,8%) Uchko'prik tumaniga, 627 tasi (6,1 %) O'zbekiston tumaniga, 614 tasi (5,9 %) Dang'ara tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 119 ta loyiha bo'yicha 712,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 9,2 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 465 ta yangi ish o'rirlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni kamayganligi kuzatildi.